Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

2022-yil 18-avgust, payshanba,
95 (23.662)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz



**КУН ҲИКМАТИ**

Муаллимни қадрлаш — маърифатни, ўзликни қадрлаш

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЭЛ АЗИЗ, ИНСОН АЗИЗ!



**Erkinjon TURDIMOV,
Samarqand viloyati hokimi:**

**– O‘qituvchi va murabbiylarni, ustozlarni e’zozlash, qadrlash har birimizning burchimiz. Bu hurmatimizni faqat so‘zda emas, amalda ko‘rsatishimiz lozim. Ayniqsa, bayram yoki tashvishli kunlarida ularni yo‘qlab, holidan xabar olsak, ularning ko‘nglini ko‘targan va bu orqali yosh avlodga ibrat ko‘rsatgan bo‘lamiz.**



**20 август - Тадбиркорлар куни**

## Тадбиркорлардан 940 га яқин мурожаат тушди

**Жорий йил 22 август куни Президентимизнинг тадбиркорлар билан очиқ мулоқот ўтказиши белгиланган. Ушбу тадбирга тайёргарлик кўриш доирасида тадбиркорларнинг таклиф ва мурожаатларини қабул қилиш, уларни қийнаётган муаммоларни аниқлаш ва ечим топиш мақсадида 1094 қисқа рақамли Call-марказ ташкил қилинган.**

Вилоят инвестиция ва ташқи савдо бошқармасида ҳам соҳага дахлдор бошқарма ва идораларнинг мутахассислари жалб этилган ҳолда штаб фаолият юритяпти. Ушбу штабда мурожаатлар тегишли равишда бошқарма ва маҳаллий ҳокимликларга йўналтирилмоқда.

- Жорий йилнинг 17 август санасигача вилоятимиздан 940 га яқин, шундан 787 та вилоят даражасидаги ва 151 та республика даражасидаги мурожаат бўлди, - дейди Президентнинг тадбиркорлар билан очиқ мулоқоти вилоят штаби аъзоси Али Раҳмонов. – Мурожаатларнинг 876 таси ўрганиб чиқилди, 61 таси ўрганиш жараёнида. Билдирилган мурожатлар таҳлил қилинганда, тижорат банклари бўйича 286 та, вилоят ташкилотларига 487 та, шаҳар-туман ҳокимликларига тегишли 162 та мурожаат келган. Мурожаатлар кўпроқ солиқ, прокуратура, қишлоқ хўжалиги, адлия, кадастр соҳаларида кузатилмоқда. Мурожаатлар асосан Ургут, Тойлоқ, Иштихон, Каттақўрғон, Оқдарё, Самарқанд туманларидан бўлмоқда.

Мурожаатларнинг 709 таси 1094 қисқа рақамли Call-марказ орқали йўлланган ва уларнинг 665 таси кўриб чиқилган. Вилоят ҳокимининг ўринбосарлари томонидан ҳудудларда тадбиркорларнинг муаммоларини ўрганиш ва ечим топиш мақсадида ўтказаётган учрашувлари давомида 229 та мурожаат ва таклиф билдирилган.

**Ўктам ХУДОЙБЕРДИЕВ.**

## Ҳиндистонлик рассом ўзбек аёли тимсолини яратди

**“Ипак йўли” халқаро туризм ва маданий мерос университетида сентябрь ойида Самарқанд шаҳрида ўтказилиши режалаштирилган Шанхай ҳамкорлик ташкилоти саммити олдидан ташкилотга аъзо давлатлардан келган рассомлар “Ижодимизни бирлаштирган Самарқанд руҳи” номли халқаро кўргазма учун суратлар чизишни бошлади.**

Ўзбекистон, Ҳиндистон, Қозоғистон, Хитой, Қирғизистон, Покистон, Россия Федерацияси ва Тожикистондан келган 40 нафарга яқин рассом ижодий ишларини намойиш қилди.

- 16 йилдан буён архитектура ва портрет йўналишида расм чизаман, - дейди ҳиндистонлик рассом Бҳабани Санкардас. – Ижодий ишларим кўплаб халқаро кўргазмаларда намойиш этилган. Аммо Самарқандга биринчи марта келиб, нуфузли халқаро кўргазмада иштирок этяпман. Ўзбекистонга келганимда икки аёлни учратдим, улар кўз олдимда Мона Лиза каби гавдаланди ва ўзбек аёли тимсолини яратдим. Ўйлайманки, бу асар халқаро кўргазма иштирокчиларига манзур бўлади.

Рассомлар олиб келган асарлар ва Самарқандда яратилган ижод намуналари “Ижодимизни бирлаштирган Самарқанд руҳи” номли халқаро кўргазмада намойиш этилади ва энг яхши асарлар келгуси кўргазма учун саралаб олинади.

**Фазлиддин РЎЗИБОЕВ.**

# SAMARQAND TAJRIBASI

## Mutaxassis va ikkinchi toifali o‘qituvchilar malakasini oshirishga mo‘ljallangan jarayon bizga nima beradi?

**Davr shu qadar shitob bilan o‘tyaptiki, islohotlarning barcha bosqichi rivojlanishni ilm-fan, texnika asosida jadallik bilan amalga oshirishni taqozo etyapti. Tabiiyki, ta’lim-tarbiyada ham ana shu jarayonga mos kadrlarni tayyorlash zarur. Buning uchun esa eng avvalo, o‘qituvchining o‘zi zamon mohiyatini chuqur anglagan holda, o‘z ustida muntazam ishlab borishi kerak. Lekin biz hali barcha hamkasblarimizda bu fazilatni ko‘rmayapmiz. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari farmon va qarorlarida, har bir chiqishlarida umumta’lim maktablaridagi o‘quv jarayonini zamonaviylashtirish, xalqaro talablar darajasiga ko‘tarish vazifasini qo‘ymoqda.**

Xususan, Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan va xususiy maktablar ana shu talablar asosida faoliyat ko‘rsata boshladi. Bu ta’lim jarayoniga o‘ziga xos yangi yo‘nalish berdi, ya’ni biz ilg‘or uslublarni o‘zlashtira boshladik. Binobarin, keyingi 2-3 yil ichida barcha maktablarda ana shu uslubni joriy etish harakati boshlandi. Buning uchun yangi metodikalarga o‘rgatuvchi milliy markaz mas’ul etib belgilandi. Kelgusida bu markazga aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha malakali xorijiy mutaxassislar ham jalb qilinadi.

Endi Samarqand tajribasi deb nom olgan yo‘nalish haqida. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 3-fevraldagi “Xalq ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishiga asosan, viloyat xalq ta’limi boshqarmasi SamDUning O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti va hududiy malaka oshirish markazi hamkorligida mutaxassis va 2-toifali o‘qituvchilar malakasini oshirishga mutasaddi etib belgilandi.

*(Davomi 2-sahifada)* »»

# BIZGA IJODIY MAKTAB KERAK

**Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ochilgan ijod maktablari ijtimoiy muhitda kundan kunga ko‘zga tashlanib boryapti. Taniqli adiblar bunday ijod maktablarga borib, mashg‘ulot o‘tishyapti, bu maktablarning o‘quvchilari esa turli tanlovlarda ishtirok etib, yaxshi o‘rinlarni qo‘lga kiritishyapti. Ular orasida hatto Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini olganlar ham bor. Xo‘sh, bizda, Samarqand viloyatida ana shunday maktabni ochishning iloji yo‘qmi? Bu savol meni doimo qiynaydi.**

To‘g‘ri, viloyatimizda deyarli barcha maktablarda hozir yozuvchi va shoirlar, ijodga aloqador ziyolilar ma’naviy targ‘ibotchi sifatida o‘quvchilar bilan ish olib borishyapti. Ular uchun maxsus shtat ham ochilgan. Bundan tashqari, ayrim tahririyatlar qoshida ijod maktablari ishlab turibdi. Lekin Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf ijod maktablarining mavqei, o‘rni boshqacha.

Men bu fikrimni bejizga aytmadim. Samarqand azal-azaldan ma’rifat maskani hisoblangan. Juda ko‘p buyuk shoirlar o‘tgan. Navoiy hazratlarining aynan shu tabarruk shaharda ikki yil tahsil olib ketishi ham Samarqand adabiy muhitining mavqeini ko‘rsatib turadi. O‘sha davrdagi tazkiralarda keltirilishicha, mintaqa adabiy jarayonida uch yuz nafardan ziyod ijodkor faoliyat ko‘rsatgan. Bu yerda xalq oqinlari - Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil shoir Yo‘ldosh o‘g‘li, Islom shoir Nazar o‘g‘li kabilar dunyoga tanilgan. Barot Boyqobilov, Xurshid Davron “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoniga sazovor bo‘lishgan. Demak, bizning viloyatda ham ijod maktabi yaratishga asos bor.

Masalan, Urgut tumani Kenagas qishlog‘ida Barot Boyqobilov yaratgan bog‘ va kutubxona mavjud. Toqqa, suvga yaqin bahavo joy. Qolaversa, Barot aka o‘zbek adabiyotiga sonet janrini olib kelish barobarida “Xamsa” bitgan adib. Ana shu so‘lim maskanda Barot Boyqobilov ijod maktabini ochish mumkin.

Hamkasblarim, adabiyotga aloqador mutaxassislar bu fikrimga munosabat bildiradi, degan umiddaman.

**Shodiyor PO‘LATOV,
Urgut tumanidagi 65-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi.**



**Bugun Ishtixon tumanida viloyat "Ustozlar milliy forumi" bo‘lib o‘tadi.**

# “Бир нуроний ўн ёшга масъул”

**Самарқанд шаҳридаги Кимёгарлар шаҳарчасида Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги томонидан ишлаб чиқилган низомга асосан шу номли кўрик-танловнинг вилоят босқичи бўлиб ўтди.**



Унда туман ва шаҳар босқичларида ғолиб бўлган 16 нафар отахон ва онахонлар беллашди.

Иштирокчилар чиқишларида ўз маҳаллаларидаги ёшларни қўллаб-қувватлаш борасидаги ибратли ишлари ва фаолиятларини альбом ҳамда видеороликларда намойиш этди. Нуронийларнинг чиқишларини ҳакамлар ҳайъати баҳолаб борди.

Якуний натижаларга кўра, биринчи ўринга Нуробод тумани вакили Солижон Худоёров, иккинчи ўринга нарпайлик Бозор Ҳасанов, учинчи ўринга Самарқанд тумани вакили Хосият Бобомуродова муносиб кўрилди. Ғолибларга эсдалик совғалар, диплом ҳамда пул мукофотлар топширилди.

- Ёшларни тарбиялашда, оилавий ажримларнинг олдини олишда миллий қадриятларимизда, муқаддас динимизда айтилган панд-насиҳатлардан унумли фойдаланаман, - дейди кўрик-танлов ғолиби Солижон Худоёров.

- Ёшларнинг муаммоларини ҳал этишда маҳалла фаоллари, тадбиркорлар билан бамаслаҳат ишлаяпмиз. Ёшларнинг нуронийларга бириктирилиши, албатта, натижасини беради. Кекса авлоднинг бой ҳаётий тажрибаси уларнинг ўз йўлини топишида дастуриламал бўлади.

Кўрик-танловнинг вилоят босқичи ғолиби республика босқичида иштирок этади.

**Сулаймон МАРДИЕВ,
Бахтиёр МУСТАНОВ (сурат).**

Sizlar dunyodagi eng bebaho boylik va boqiy merosni yaratish, uni xalqimizga, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga bezavol yetkazish yo‘lida chinakam fidoyilik ko‘rsatib mehnat qilayotgan ulug‘ insonlarsiz. Bu ulkan boylik – aql-zakovat va ilm, bu o‘lmas meros – yaxshi tarbiyadir.

**Shavkat MIRZIYOYEV.**

# ZIYOLILARNING ZIYOLISI

**Bizning avlod muallimlarning ibrati asosida shakllangan. Yana ham aniqroq qilib aytsam, biz kasbimizni ham, hunarimizni ham maktabda ta’lim bergan o‘qituvchiga havas qilib, uning maslahati bilan tanlaganmiz. Chunki muallim har birimizni o‘z farzandidek ko‘rib, savol-javobda ham ko‘rib, savol-javobda ham,** 



To‘g‘ri, ehtimol zamona zayli bilan jamiyatdagi munosabatlarda o‘zgarishlar ro‘y berayotgandir. Ehtimol bu tabiiy holatdir, lekin muallim obro‘sining tushishi hech qaysi jamiyatga foyda keltirmagan. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari O‘zbekiston Prezidenti lavozimiga kirishgan kundanoq ilm ahli, muallimlar qadr-qimmatini oshirishga kirishdi. Akademiklar bilan suhbatlar va ularni rag‘batlantirish, ijtimoiy hayotga jalb etish hayotimizga qanchalik jo‘shqinlik kiritganini eslaylik. Yoki maktab o‘qituvchilarining o‘z kasbiga aloqasi bo‘lmagan ishlardan xalos qilinishini yodga olaylik. Bu katta jur’at bizga ham mas’uliyat yuklamaydimi?!

Yana bir gap. Qishloqda muallimlarni ziyolilarning ziyolisi deyishardi. Chunki u yerda chorva mutaxassislari, shifokorlar va boshqa oliy ma’lumotli kasb egalari ham bo‘lardi. Ammo bir narsa esimizdan chiqmaydiki, qolgan barcha kasb egalari hatto o‘z sohasidagi ayrim muammolar yechimida ham o‘qituvchilar bilan maslahatlashardi. Qishloqdagi to‘yboshi ham o‘qituvchi bo‘lardi. Maktabda tadbir o‘tkazilsa, farzandi-ku o‘z yo‘liga, uning o‘qituvchisini ko‘rish uchun ota-onalar tashrif buyurishardi. Uyiga o‘qituvchi kelsa, dasturxon to‘riga o‘tqazishardi. Bizning avlod ana shu jarayonni ko‘rib kamol topgan.

Shu sababli bo‘lsa kerak, biz o‘qituvchining hozirda ham ana shu qadarlik obro‘-izzatda yurishini istaymiz. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev shuning uchun nimaiki talab qilinsa, hammasini yaratib beryapti. O‘qituvchi maktabdagina emas, hayotda ham, oila va mahallada ham odamlarga ibrat bo‘la olishi kerak. Hozirda ham qishlog‘imga borganda, davralarda kishilar fidoyi o‘qituvchilarni “falonchi muallim” deb izzatlashadi.

O‘tkazilayotgan forum aslida aynan ana shu maqsadga qaratilgan. Chunki zamonaning talabini tushungan, o‘z ustida tinmay ishlaydigan, davrga munosib kadr tayyorlash zimmasidagi mas’uliyat ekanligini anglagan hamkasblarimizgina ana shunday sharafga ega bo‘la oladilar. Biz esa safimizda bundaylarning juda ko‘p bo‘lishini istaymiz.

**Saidahmad USMONOV,**
**viloyat hokimining xalq ta’limi masalalari bo‘yicha maslahatchisi, pedagogika fanlari nomzodi.**

# SAMARQAND TAJRIBASI

## Mutaxassis va ikkinchi toifali o‘qituvchilar malakasini oshirishga mo‘ljallangan jarayon bizga nima beradi?

*(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)*

Ana shu o‘qituvchilarga metodik yordam beruvchi mobil metodik guruhlar tashkil etildi. Bu guruhlar o‘qituvchilar bilan ularning belgilangan kunlarida oflayn yoki onlayn shaklda mashg‘ulot olib boradilar.

Keling, avval bir narsani anglab olaylik. Mutaxassis deganimiz bu - OTMni endi bitirib kelgan, hali malaka toifasi olish uchun harakatga tushmagan muallimlardir. Asosiy maqsad, mutaxassis va ikkinchi toifadagilarni birinchi va oliy toifali o‘qituvchilar safiga qo‘shishdir.

Binobarin, mobil metodik guruhlar, avvalo, yuqorida aytilgan toifa pedagoglari o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib boradi, o‘z ustida ishlash, intilish nechog‘lik samarali ekanligini tushuntiradi. Buning uchun 420 nafar tajribali, fidoyi, oliy va birinchi toifali o‘qituvchilarni saralab olganmiz. Ular o‘tgan besh oy davomida 167 ta tayanch maktablarda yosh va malaka toifasi bo‘lmagan 10 ming nafarga yaqin pedagoglar uchun mahorat darslari tashkil etishdi. Shuningdek, viloyatdagi 30 ta maktabda ham bunday guruhlar tashkil etildi. 9 ta fan bo‘yicha haftalik, oylik va yarim yillik monitoringlar olib borildi. Metodik xizmat bo‘limi tomonidan 100 nafardan ortiq o‘qituvchining ilg‘or tajribalari viloyatimiz miqyosida, yana shuncha muallimning tajribasi esa mamlakat miqyosida ommalashtirildi.

Tabiiyki, bu jarayon maktablarga o‘ziga xos jo‘shqinlik berdi. Ko‘plab darslar ochiq tarzda o‘tkazilyapti. O‘qituvchilar dars samaradorligini oshirishda bir-biriga ko‘maklashyapti.

Milliy reyting bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan biror o‘sishga erishgan bo‘lsak-da, hali oldimizda katta vazifalar turibdi. Binobarin, maktablar, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning ko‘pligi ham viloyatda ta’limni keng miqyosda rivojlantirishni talab etadi. Shuning uchun ham biz milliy reytingda yaxshi ko‘rsatkichlarga erishmagan maktablar bilan ishlash rejasini tuzganmiz. Misol uchun, ta’lim sifati past maktablarga avvalo, o‘zimizdagi, qolaversa, boshqa viloyatlardagi tajribali, oliy va birinchi toifali o‘qituvchilarni jalb etgan holda bu ilm dargohlarini “to‘q qizil” toifadan “sariq” va “yashil” maktablar toifasiga ko‘tarish vazifasini qo‘yganmiz. Maqsad bitta, u ham bo‘lsa, davlatimiz rahbari tomonidan xalq ta’limi sohasiga ko‘rsatilayotgan juda katta g‘amxo‘rlik va imtiyozlarga javoban Yangi O‘zbekistonga munosib kadrlarni yetishtirishdir.

**Shokir SULTONOV,**
**viloyat xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i.**

## VILOYAT XALQ TA’LIMI BOSHQARMASI RAQAMLARDA...

*__1286 ta__ ta’lim muassasasi bo‘lib, shundan __1259 ta__ maktab, __8 ta__ maxsus maktab-internat, __17 ta__ “Barkamol avlod” bolalar maktabi, __1 ta__ bolalar kutubxonasi va __1 ta__ malaka oshirish hududiy markazi faoliyat yuritmoqda.*

*Viloyatdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablariga __2022-2023__-o‘quv yilida jami __86751 nafar__ bolalarni 1-sinfga qabul qilish rejalashtirilgan.*

*__744206 nafar__ o‘quvchiga __57359 nafar__ pedagog-o‘qituvchi ta’lim-tarbiya beradi. O‘qituvchilarning __3750 nafari__ oliy toifali, __9125 nafari__ 1-toifali, __16665 nafari__ 2-toifali, __20644 nafari__ mutaxassislardir.*

*__2021__-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan, Kattaqo‘rg‘on shahridagi 11-ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi __Sayyora Imomova “O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi”__ faxriy unvoni bilan hamda __8 nafar__ o‘qituvchi orden va medallar bilan mukofotlandi.*

*__2021-2022__-o‘quv yilida umumta’lim muassasalarini __110824 nafar__ o‘quvchi bitirdi. Shundan __63227 nafari__ 9-sinf, __47424 nafari__ 11-sinf o‘quvchilaridir. 11-sinf bitiruvchilaridan __954 nafari__ oltin, __144 nafari__ kumush medal oldi.*

*__2022__ yilda fan olimpiadasining respublika bosqichida o‘quvchilar __7 ta__ sovrinli o‘rinni qo‘lga kiritdi.*

# ZAMONAVIY TA’LIM

***Viloyat xalq ta’limi boshqarmasi tasarrufidagi umumta’lim maktablarining barchasi kompyuter jihozlari bilan ta’minlangan. Xususan, joriy yilning o‘tgan vaqtida xorijiy bank kredit mablag‘lari hisobidan viloyatdagi 110 ta maktabga zamonaviy kompyuter jamlanmalari berildi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida respublika byudjetidan 96 ta hamda mahalliy byudjet mablag‘idan 78 ta maktabga kompyuter jamlanmalari olib berildi. Umumiy hisobda viloyatdagi maktablarning 1076 ta sinfxonalari zamonaviy kompyuterlar bilan ta’minlangan. Shunga qaramay, 610 ta kompyuter xonalaridagi jihozlar eskirgan yoki ta’mirga muhtojligicha qolmoqda.***

O‘tgan o‘quv yili boshida oldimizga maktablardagi kompyuterlarni bog‘lovchi yagona “Elektron ta’lim” tarmog‘ini joriy etish vazifasi qo‘yilgan edi. Shundan kelib chiqib, viloyatdagi barcha maktablarning telekommunikatsiya infratuzilmasi, ya’ni kompyuter texnikasi bilan jihozlangan informatika o‘quv xonalari va direktorlarning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari xonalari yagona tarmoqqa ulanib, o‘qituvchilar uchun maxsus Wi-Fi hududlari yaratildi. Xalq ta’limi vazirligining tegishli buyrug‘i bilan ularda 2022-2023-o‘quv yilidan boshlab to‘liq “Kundalik” elektron jurnal tizimi qo‘llaniladi.

Hozir viloyatdagi maktablarning 7-11-sinflarida o‘qiyotgan 248 ming 188 nafar o‘quvchi “Bir million dasturchi” loyihasi asosida uzbekcoders.uz portalida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, shundan 125 ming 238 nafari bitiruvchi sertifikatini olgan. Zarur bilim va ko‘nikmaga ega o‘qituvchi va o‘quvchilar ta’lim jarayonida “kitob.uz”, “maktab.uz”, “educare.itsm.uz”, “Smart Land”, “EduKids”, “onlinedu.uz”, “attestat.uzedu.uz”, “Uzbekcoders.uz” singari 20 ga yaqin platformalardan foydalanishi mumkin. Xususan, “kitob.uz” elektron platformasiga 3500 ga yaqin adabiyotlarning elektron va audio shakllari joylashtirilgan. Portalning Android va iOS operatsion tizimlari uchun mobil ilovalari ham ishga tushirilgan. Bundan tashqari, “educare.itsm.uz”dan pedagogika va psixologiyaga oid 180 ga yaqin video va animatsion roliklarni topish mumkin. Albatta, mazkur platformalar, mos ravishda maktablardagi sharoitlar ham tizimli ravishda takomillashtirib borilmoqda.

**Javlonbek MIYASSAROV,**
**viloyat xalq ta’limi boshqarmasi AKTni joriy etish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i.**

**Ko‘p yillik tajribamga asoslanib ayta olamanki, bugungi kunda maktab o‘qituvchisiga o‘z iqtidorini ko‘rsatishi uchun imkoniyat yetarli. Misol uchun, o‘rtacha maosh ko‘tarildi, mahorat ko‘rsatsangiz, toifa olib, qo‘shimcha daromadni qo‘lga kiritasiz. Shogirdlaringiz tanlovda sovrinli o‘rinni qo‘lga kiritsa, sizga ham rag‘bat bor. Ya’ni, kasb sohasidagi har bir yutug‘ingizdan moddiy manfaatdor bo‘lasiz.**

# MAKTABNING MAVQEYI MUALLIMDA

Ming afsuski, ayrim hamkasblarimiz hamon g‘aflat uyqusidan uyg‘ongan emas, atrofdagi o‘zgarishlarni ko‘rib turib, eskicha fikrlaydi. Eng yomoni, o‘z ustida ishlamaydi, o‘quvchilarga dars berishda yangilik qilishga intilmaydi. Tag‘in e’tiroz bildirsangiz, sizdan o‘pkalaydi, o‘zini tahqirlangan ko‘rsatishga intiladi.

Fikrimni bir misol bilan isbotlamoqchiman. Toifa olish jarayoni shu qadarlik shaffof darajaga keldiki, unda tanish-bilishchilik va korrupsion holatlarga o‘rin qolmadi. Shunda ham ayrim noshud o‘qituvchilar test sinovidan o‘tishda tanish axtarishdi. Hatto bu sinovdan o‘tkazib qo‘yuvchi “hojatbaror”lar paydo bo‘ldi. Ulardan biri menga ham o‘z xizmatini taklif etdi.

Ana shunday paytda Ta’lim sifatini nazorat qilish agentligi viloyat bo‘limi xodimlari tumanlarda o‘qituvchilar bilan seminar o‘tkazdi. Toifa uchun test jarayoni va savollar mazmuni amalda ko‘rsatildi. Bu holat ko‘pchilikning ko‘zini ochdi.

Xususan, o‘zim hamma gap malaka va bilimda ekanini tushunib yetdim. Darsliklar va qo‘shimcha adabiyotlar orqali fanim yuzasidan tayyorgarlik ko‘rdim va sinovdan yuqori ball oldim. Bu masalada hech kimga iltimos qilishning, qing‘ir yo‘l tutishning hojati yo‘qligini tushundim. Shu bahonada o‘z ustida ishlash, sohadagi yangiliklardan xabardor bo‘lish odatimga aylandi.

**Mavjuda JONG‘OZOVA,**
**Qo‘shrabot tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi.**

# ILMDA RAG‘BAT ADOLATLI BO‘LMOG‘I LOZIM

**Bu gapni Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatga birinchi rahbar bo‘lganidayoq baralla aytdi. Biz taraqqiyotga faqat ilm-fanni rivojlantirish orqaligina erishishimiz mumkinligini ta’kidladi. Va butun faoliyati, harakati, siyosati yo‘nalishini ana shunga qaratdi. Bu harakat o‘z samarasini berdi.**

**1**

**Birinchidan,** O‘zbekistonda fundamental fanlar peshqadamlari - akademiklar qadri, salohiyati oshirildi.

**Ikkinchidan,** umumta’lim maktablarida muallim obro‘sini oshirish, ta’lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha jiddiy islohotlar boshlandi. Maktabgacha ta’limga bolalarni ko‘proq qamrash strategiyasi belgilandi. Ijod va Prezident maktablari ochildi.

**Uchinchidan,** oliy o‘quv yurtlari kvotalari ko‘paydi, qamrov soni oshirildi, yangi oliy ta’lim muassasalari ochildi. Ya’ni, har bir yigit-qiz o‘qishga kirishiga imkoniyat bo‘lsin, lekin diplomni faqat bilimi borlargina olsin, degan talab ko‘ndalang qo‘yildi, OTMlarga muayyan akademik va moliyaviy mustaqillik berildi.

**To‘rtinchidan**, startap loyihalar, innovatsion takliflarga yo‘l ochildi, "Bir million dasturchi" loyihasiga start berildi.

Hazilakam o‘zgarish emas, to‘g‘rimi? Bularning ayrimlari, hatto, xayolimizga ham kelmagan edi. Lekin davlat rahbarining qat’iyati bois amalga oshirildi. Bu jarayon barchamizning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan nuqtai nazarimizni o‘zgartirdi. Aniqroq qilib aytsak, yoshlar va ota-onalarning aksariyati faqat ilmlilargina ta’limda oldinga yura olishini tushunib yetdi. Muallimlar esa faqat o‘z fanini puxta bilsagina, shogirdlari bilimli bo‘lsagina toifa olib, mehnatidan manfaatdor bo‘lishi mumkinligini amalda ko‘rdi. Garchi qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, oliy o‘quv yurtlarida ham joriy imtihon va sinovlarda oshkoralik, adolat o‘rnatilyapti.

Agar davlat belgilagan strategik vazifalar kutilganidek amalga oshsa, biz

**2**

bundan ham katta yutuqlarga erisha olamiz. Bu haqiqat hammaga ayon. Ming afsuski, buni barcha joyda birdek amalga oshira olmayapmiz. Ta’lim-tarbiyada kimlargadir mayda-chuyda ko‘ringan imkoniyatlar mavjudki, mabodo ulardan ham samarali foydalansak, bu sohada adolatga yanada ko‘proq erishish mumkin. Kamina hayotiy tajribamdan kelib chiqib, ana shu imkoniyatlar haqida mulohaza yuritmoqchiman.

Xalqimizda oilada yaxshi tarbiya ko‘rgan bolagina yaxshi ta’lim oladi, degan gap bor. Binobarin, tarbiyasiz bolada ilm olishga ishtiyoq bo‘lmaydi.

Tarbiyaning samarasi esa, eng avvalo, maktabda ko‘zga tashlanadi. Maktabda olingan bilim zaxirasi, asosi yigit-qizga keyingi ta’limda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlikda olingan ilm, toshga o‘yilgan naqsh kabidir, deb bejiz aytishmagan. Demoqchimanki, ilm olishdagi barcha adolat va rag‘bat tamoyillari aynan ana shu paytda, maktabda yo‘lga qo‘yilishi zarur. Aks holda, oliy o‘quv yurtlarida berilayotgan imtiyoz va mukofotlar, agar ular umumta’lim maktabida yaxshi o‘qimagan bo‘lsa, yoshlar uchun kutilgan samarani bermaydi.

Gap iqtidorli, ishtiyoqli bolalar to‘g‘risida bormoqda. Xo‘sh, ularga o‘rta maktabda qanday munosabatda bo‘lmoq kerak?

Maktabda iqtidorni belgilash va aniqlashning eng maqbul yo‘li bu fanlar olimpiadasidir. Bir qaraganda, bu borada ancha ochiqlik va adolatga erisha oldik. Xalqaro olimpiadalardagi natijalar buni ko‘rsatib turibdi. Eng yaxshi natija

**3**

ko‘rsatganlar g‘olib chiqyapti. Bu – adolatli ish. Ammo keling, masalaga sal chuqurroq yondashaylik.

Aytaylik, bitta tumanda o‘rtacha 40 ta maktab bor. Kimyo fanidan olimpiadada 40 nafar o‘quvchi qatnashadi. Ulardan faqat uchta sovrinli o‘rinni olganlar viloyat yoki mintaqaviy bosqichga yo‘l oladi. Xuddi shu tariqa uch nafar sovrindor respublika bosqichida qatnashadi va ular orasidan yana uch nafar g‘olib aniqlanadi hamda ularga oliy ta’lim muassasasiga o‘qishga qirishda o‘z fani bo‘yicha maksimal ball beriladi.

Endi bir tahlil qilaylik, o‘tgan o‘quv yilida test sinovlarida bitta tumandan qancha o‘quvchi kimyo fanidan eng ko‘p ball olgan? Aniq bilamanki, ular 10 nafardan kam emas. Ana shu raqamni viloyat bo‘yicha tahlil qilib ko‘ring. Demak, olimpiadada qatnashmagan yoki sovrinli o‘rinni ololmagan taxminan 100 nafar yigit-qiz test sinovida eng yuqori natijaga erishgan, lekin ular imtiyozsiz o‘qishga kirgan. Demak, biz kimyo fanidan puxta bilimga ega bo‘lgan uch nafar sovrindorgagina adolat qildik, xolos.

Olimpiadada agar bir necha o‘quvchi bir xil ball to‘plab qolsa, qo‘shimcha sinov orqali g‘olib tanlanadi, tabiiyki, bu hol shu fandan bilim saviyasi qariyb bir xil bo‘lgan boshqa ishtirokchilarga nisbatan adolatsizlik hisoblanadi. Shu o‘rinda aytmoqchimanki, agar bir xil ball to‘plaganlarning barchasiga sovrinli o‘rinlar berilsa, nima yo‘qotamiz-u, nima yutamiz?

Yutug‘imiz shuki, bilim saviyasi bir-biriga yaqinlarga nisbatan adolatli ish tutamiz. Bundan tashqari, boshqalar ham faqat birinchi yoki sovrinli o‘rin olish uchun emas, balki yuqori natijaga erishish uchun o‘qiydi. Vaholanki, tanlovlarning barchasi doimo nisbiy yoki tasodifiy baholash holatiga ega. Yutqazganimiz shuki, bir kishi g‘olib bo‘lganda, unga teng yoki juda yaqin bilimga ega bo‘lganlarga alam qiladi va ular qanday bo‘lmasin, birinchi bo‘lish chorasini ko‘radi.

# Кашфиёт яратган олим

**Ҳаётда шундай инсонлар бўладики, улар туфайли фанда номаълум бўлган муаммолар кашф этилади, унинг ортидан содир бўлиши мумкин бўлган кўнгилсиз воқеа-ҳодисаларнинг олди олинади. Шундай инсонлардан бири ветеринария ва чорвачилик илм-фани ривожига муносиб ҳисса қўшган таниқли олим Хаит Салимовдир.**



Хаит Салимов 1942 йилда Иштихон тумани Бўронхўжа қишлоғида туғилган. 1958 йилда мактабни аъло баҳолар билан битириб, ўша даврдаги Ўзбекистон қишлоқ хўжалик институтининг ветеринария факультетига ўқишга кирди. 1964 йилда институтни имтиёзли диплом билан битирди.

Х.Салимов уч йилга яқин ветеринария хизмати амалиётида ишлагандан кейин 1967 йил март ойида Москвадаги Бутуниттифоқ экспериментал ветеринария институти "Лейкоз касаллигини ўрганиш" лабораториясига аспирантурага қабул қилинди. Аспирантурада у профессор А.Лактионовдан тинимсиз изланиш, адабиётлар билан ишлаш усулларини ўрганди. Курсдошлари билан бир вақтда илмий ишини бошлаган бўлса-да, улардан олдин номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди.

Аспирантурада ўқиш жараёнида энг етук олим ва профессорлар билан ишлаши ва нуфузли анжуманларда қатнашиши устознинг олим сифатида шаклланишида муҳим роль ўйнади.

Аспирантурани тугатгач, Ўзбекистон ветеринария илмий тадқиқот институтига катта илмий ходим вазифасига ишга қабул қилинди. Дастлаб биохимия лабораторияси, сўнг микробиология, патанатомия лабораторияларида лейкоз муаммоси бўйича илмий фаолиятини давом эттирди.

1977 йилда қорамоллар орасида лейкоз муаммоси собиқ иттифоқ ва кўпгина Европа мамлакатларида жиддий муаммога айланиб улгурган эди. Касалликнинг республикамизда тарқалиб кетишининг олдини олиш мақсадида Х.Салимов раҳбарлигида лейкоз касаллигини ўрганиш лабораторияси ташкил этилди.

Домла қорамоллар лейкозининг келиб чиқиши вирус бўлиши мумкинлиги ғоясини илгари сурган бўлса-да, лекин бу ғоя илмий исботланган асослар билан тасдиқланишни талаб этар эди. Тажрибалар натижасида қора-ола зотли қорамолларда ва қоракўл қўйларида экспериментал лейкоз қўзғатувчиси онкоген вирус эканлиги исботланди.

Тажрибалар натижасини қатор таниқли олимлар оламшумул кашфиёт сифатида тан олишди. Бундан ташқари, Х.Салимов биринчилар қаторида лейкоз вирусининг кўз шиллиқ пардаси орқали юқтириш, қон сўрувчи ҳашаротлар, игна билан, сут ва сийдик орқали бир молдан иккинчи молга ўтиши мумкинлигини исботлади. Бу натижалар қорамолларни селекция қилиш эвазига лейкозга чидамли зотлар яратиш зарурлиги тўғрисида амалий тавсия ишлаб чиқишга асос бўлди. Шунингдек, ҳайвонларда учрайдиган турли касалликларнинг келиб чиқиш омиллари устида ишлади.

Лейкоз касаллиги бўйича олинган барча маълумотлар устознинг 1988 йилда тайёрлаган диссертациясига асос бўлди. У диссертацияни муваффақиятли ҳимоя этиб, ветеринария фанлари доктори илмий даражасини, кейинчалик профессор унвонини олишга эришди.

Умрини илмга бағишлаган устоз 5 та дарслик, 40 дан ортиқ қўлланма ва тавсияномалар ҳамда 400 га яқин илмий мақолалар чоп эттирди. 2017 йилда Ўзбекистон Республикаси Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш давлат қўмитаси томонидан "Олтин тулпор" мукофотига сазовор бўлди.

Устоз нафақат етук олим сифатида танилган, балки ёру дўст, қўни-қўшнилар, маҳалла аҳли ўртасида энг ибратли ва намунали оила бошлиғи сифатида катта иззат-икромга сазовордир.

Бугун Х.Салимов 80 ёшни қарши олмоқда. Устозга Яратгандан узоқ умр, сиҳат-саломатлик тилаймиз. Доим шогирдлар эъзозидаги устоз бўлиб юринг, деймиз.

**Бозорбой ЭЛМУРОДОВ,**
**Ветеринария илмий-тадқиқот институти директори, ветеринария фанлари доктори.**

## ДАЪВОЛАР БЎЛСА...

Самарқанд шаҳридаги «BUNYODKOR SHAXRIYOR SERVIS» масъулияти чекланган жамияти (СТИР: 301971438) ўз номини «EUROPRIME» масъулияти чекланган жамиятига ўзгартирмоқда. «EUROPRIME» масъулияти чекланган жамияти «BUNYODKOR SHAXRIYOR SERVIS» масъулияти чекланган жамиятининг барча ҳуқуқ ва мажбуриятлари бўйича ҳуқуқий вориси ҳисобланади. Шу муносабат билан унга билдириладиган барча даъволар газетада эълон чоп этилгач, бир ой давомида қабул қилинади.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Боғибаланд маҳалласи.**

* * *

Самарқанд шаҳридаги «CHISTOE NEBO» хусусий корхонаси (СТИР: 306205926) ташкилий-ҳуқуқий шаклини «CHISTOE NEBO» масъулияти чекланган жамиятига ўзгартиради. «CHISTOE NEBO» масъулияти чекланган жамияти «CHISTOE NEBO» хусусий корхонасининг барча ҳуқуқ ва мажбуриятлари бўйича ҳуқуқий вориси ҳисобланади.

Шу муносабат билан унга билдириладиган барча даъволар газетада эълон чоп этилгач, бир ой давомида қабул қилинади.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Мирзо Улуғбек кўчаси, 64-уй.**

* * *

Самарқанд туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Шомуродов Анвар Салимович нотариал идорасида марҳум Шарипов Шухрат Абдурахмоновичга (2022 йил 27 июлда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Шомуродов Анвар Салимович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд тумани Ўрташиқ маҳалласи.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасида марҳум Урунов Рахмат Халматовичга (2013 йил 15 апрелда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Юсупова Ирода Рустамовна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Боғдод кўчаси, 1-уй, 3-хона.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Алиева Лола Заировна нотариал идорасида марҳум Локтионова Людмила Владимировнага (2021 йил 6 февралда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Алиева Лола Заировна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Мирзо Улуғбек кўчаси, 80-уй.**

* * *

Пайариқ туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Муҳаммадиев Фарҳод Жўрақулович нотариал идорасида марҳум Уролов Абдурауф Хазраткуловичга (2020 йил 16 сентябрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилган. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Муҳаммадиев Фарҳод Жўрақулович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Пайариқ тумани Челак шаҳарчаси, Истиқлол кўчаси, 76-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Алиева Лола Заировна нотариал идорасида марҳум Кенжаев Бобога (2008 йил 7 июнда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Алиева Лола Заировна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Мирзо Улуғбек кўчаси, 80-уй.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Алиева Лола Заировна нотариал идорасида марҳум Кан Афанасий Генхвановичга (2020 йил 14 декабрда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Алиева Лола Заировна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Мирзо Улуғбек кўчаси, 80-уй.**

* * *

Ургут туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ҳошимов Ғолиб Бахтиёрович нотариал идорасида марҳум Ражабов Хужамурод Хушвақтовичга (2022 йил 26 мартда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилган. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Ҳошимов Ғолиб Бахтиёрович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Ургут шаҳарчаси Навоий шоҳкўчаси.**

* * *

Пайариқ туманида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Тоштемиров Алишер Пўлатович нотариал идорасида марҳум Жонкобилов Гуломжон Мелибаевичга (2022 йил 22 февралда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилган. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Тоштемиров Алишер Пўлатович нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Пайариқ тумани Челак шаҳарчаси Обод кўчаси, 35-уй, 3-хона.**

* * *

Самарқанд шаҳрида хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Алиева Лола Заировна нотариал идорасида марҳум Егоров Геннадий Викторовичга (2019 йил 31 мартда вафот этган) тегишли мол-мулк учун мерос иши очилмоқда. Шу муносабат билан меросхўрларнинг Алиева Лола Заировна нотариал идорасига мурожаат этишларини сўраймиз.

**Манзил: Самарқанд шаҳри Мирзо Улуғбек кўчаси, 80-уй.**

* * *

## БЕКОР ҚИЛИНАДИ

Сиёб қурилиш ва миллий ҳунармандчилик касб-ҳунар коллежидан 2018 йилда Саломов Санжар Сухробович номига берилган рўйхат рақами 21, К № 2492729 рақамли диплом ва унинг иловаси йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Самарқанд қишлоқ хўжалик касб-ҳунар коллежидан 2010 йилда Ражабов Шавкат Баходирович номига берилган рўйхат рақами 3884, К № 1698771 рақамли диплом йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Самарқанд педагогика коллежидан 2018 йилда Ризаева Меҳрибон Комилжоновна номига берилган рўйхат рақами 53, К № 0323845 рақамли имтиёзли дипломнинг иловаси йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.

* * *

Булунғур туманидаги Дувланова Мавлюда Сайфитдиновна якка тартибдаги тадбиркорининг (СТИР: 519320842) думалоқ муҳри ва бурчак тамғаси йўқолганлиги сабабли бекор қилинади.





Хизматлар лицензияланган.





MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

*Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 871 nusxada chop etildi. Buyurtma 532. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
**Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: **A.HAYDAROV.**
Navbatchi: **O'.XUDOYBERDIYEV.**
Sahifalovchi: **B.ABDULLAYEV.**

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda